

**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI TASHKILOTLARIDA
VATANPARVARLIK VA HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASINING
PEDAGOGIK ASOSLARI**

Jumadillayeva Feruza Olimjon qizi

**Toshkent viloyati Ohangaron shaxar
7- sonli MTT direktor o'rinbosari**

Tuymurodova Farangiz G'ulom qizi

**Qahqadaryo viloyati Muborak
tumani 4-DMTT direktor o'rinbosari**

Annotatsiya

Maqolada Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarida Vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik tushichalarini maktabgacha yoshdagi bolalarga o'rgatish asosan ko'rgazmali vositalar (Harbiy texnika va qurol yarog'lar asosida) orqali tushintirish ishlari ilmiy-pedagogik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Vatanparvarlik, Harbiy-vatanparvarlik, Tarixiy siymolar, Intellektual salohiyat.

**PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF PATRIOTISM AND MILITARY-
PATRIOTISM EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**

Annotation

The article discusses the work on teaching Patriotism, military-patriotic concepts to preschool children in preschool educational organizations, mainly through visual aids (based on military equipment and weapons), based on scientific-pedagogical and regulatory legal documents.

Keywords: Patriotism, Military-patriotism, Historical figures, Intellectual potential.

Vatanparvalik haqida so'z yuritishdan avval Vatan tushinchasiga izoh berish maqsadga muvofiq. Vatan aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini anglatadi, shu ma'noda olib qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston – o'zbek xalqining vatani, muqaddas sajdagohidir.

Vatan – bu inson va uning avlod ajdodlari kindik qoni to'kilgan muqaddas dargohdir. Vatan – bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlarini chinakamiga shakllanib, o'sib, kamol topib boradigan zamindir.

Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlaridanoq bolalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – bu ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatni talab etadi.

Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotida harbiy-vatanparvarlikka yo'naltirilgan ishlar har kunlik faoliyatga singdirilgan bo'lishi kerak. Bu ertalabki badan-tarbiya mashqidan oldin Vatan madhiyasini tinglashdan boshlanadi. Jismoniy daqiqadagi Vatanga bag'ishlangan she'r va musiqa ham bolalar ongiga yurtga muhabbat tuyg'ularini singdirishga yordam beradi. Nutq o'stirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish, atrof-olam haqidagi bilimlarga o'rgatishda esa qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan tanishtirishga doimo to'xtalib o'tish tarbiyachidan talab etiladi. Bunda albatta Vatanparvarlik ruhidagi tadbirlar yoki ertaliklarda emas, balki muntazamlik kasb etadigan o'yin mashg'ulotlarida ham yurtga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalaydigan usullarga murojaat etish zarur. Tarixiy siymolar, buyuk ajdodlarimiz, mashhur adiblarga bag'ishlangan kechalarda tarbiyalanuvchilar Vatan uchun jon fido qilganlarning qahramonliklarini o'rganadi, jasoratidan saboq chiqaradi. Bunda ishonirish. Mashq qildirish va mustaqil ishlash, kuzatish, rag'batlantirish, o'rnak ko'rsatish va shaxsiy namuna usullarida ta'limiy jarayonni tashkilotish samara beradi.

Kitobxonlik, o'yinlar, turli kasb egalari bilan, urush va mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar tarzida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar esa tarbiyalanuvchilar dunyoqarashini kengaytirishga ham katta hissa bo'lib qo'shiladi.

Shu o'rinda vatanparvarlik ruhidagi film va multfilmlar, badiiy va musiqiy asarlar, elektron o'yinlardan Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotidagi ta'lim-tarbiyaviy jarayonda foydalanish faoliyatga innovatsion ruh bag'ishlaydi.

3-7 yosh bolalarda atrof-olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo'ladigan bosqich hisoblanib, ushbu bosqichda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratiladi:

4. harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida dastlabki, tasavvurlarni shakllantirish maqsadida ertak hikoyalar aytib berish;

5. ona-Vatanga muhabbat, Vatan himoyasi, muqaddas burch ekani bilan bog'liq mavzulardagi she'r va qo'shiqlarni yod oldirish;

6. bolalarning tasavvurini kengaytirishga doir rasmlar chizdirish va jismoniy qobiliyatini mustahkamlash uchun turli musobaqa va tanlovlar tashkil etish, shu orqali ularni ma'naviy rag'batlantirish;

harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi multfilmlar namoyish etish va turli o'yinlar o'tkazish;

harbiy muzeylar va harbiy-vatanparvarlik mavzusi bilan bog'liq madaniyat va istirohat bog'lariga ekskursiyalar uyushtirish.

Shuningdek mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan birga Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini mard va pahlavon yigit bo'lishga havasini oshirishga va ona-yurtiga sodiq farzand bo'lish tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan "Jaloliddin bahodirlari" nomli sport o'yinlarini tashkil etish ham samarali usuldur. Ushbu bayram ertaligini ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etish oila-mahalla Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotining o'zaro aloqalarini mustahkamlaydi.

2018-yilda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar

dasturi”da Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarida bolalar o’rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshirish, ularda yuksak ma’naviy-ahloqiy fazilatlar, Vatanni sevish va uni ko’zqorachig’idek asrashga qaratilgan bilim va ko’nikmalarni oshirish uchun pedagog xodimlar va ota-onalar mas’ulligi belgilab qo’yilgan. Shunday ekan, ushbu qaror ijrosi hamda “Ilk Qadam” Davlat o’quv dasturi bo’yicha mavzularni bolalarga o’rgatishda vatanparvarlik g’oyasi singdirilgan metodik manbalarni keng tarzda jarayonga tatbiq etishga barchamiz ma’suldirmiz.

Darhaqiqat, vatanparvarlik yoshlarda fuqarolik burchi, shaxsiy mas’uliyat hissi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg’usini, faol hayotiy pozitsiya va qat’iy e’tiqodini, kasbiy mahoratini shakllantiradigan qudratli vositadir. Bundan unumli foydalangan holda yoshlarimizda yot g’oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, Ona-yurt taqdiri uchun mas’uliyat tuyg’usini mustahkamlash, ularni o’z kasbiga sadoqatli va har tomonlama yetuk kadrlar etib tarbiyalash bo’yicha aniq chora-tadbirlar ko’rishimizni taqozo qilmoqda.

Ma’lumot o’rnida Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari quyidagi to’rt bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqich (3-7 yoshdagilar) atrofda olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo’ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarida bolalarga tegishli yo’nalishlar bo’yicha she’rlar, qo’shiqlar o’rgatish, ertak va hikoyalar aytib berish, rasmlar chizdirish, harbiy muzeylar va madaniyat va istirohat bog’lariga ekskursiyalar, sport musobaqalari tashil etish, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishtirish asosida ularda ona yurtga muhabbat tuyg’ularini shakllantirishni o’z ichiga oladi;

ikkinchi bosqichda (7-16 yoshdagi bolalar) o’quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, Ona-yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas’uliyat bilan bajarish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo’lgan ishonch va ijobiy fikrlarni yanada kuchaytirish, harbiy xizmat nufuzini oshirish, yoshlarning jismonan sog’lom, ma’naviy yetuk, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da’vat etiladi;

uchinchi bosqich (16-18 yoshdagi o’smirlar) yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta’minlashga yo’naltiriladi. Milliy armiyamiz uchun jismonan baquvvat va ma’nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmatning ahamiyati, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar haqida batafsil ma’lumot berib boriladi;

to’rtinchi bosqich (18-30 yoshdagilar) yoshlarning jismoniy va ma’naviy qobiliyati, yetakchilik ko’nikmalari va intellektual salohiyati, professional malakasini oshirish, egallagan kasbiga sadoqati va fidoyiligi bilan Vatan ravnaqi va yurt taraqqiyotiga salmoqli hissa qo’shish va bunga erishishni nazarda tutadi.

Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarida katta guruh bolalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash imkoniyatlari kattadir. Biz o’z pedagogik faoliyatimiz davomida Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari katta guruh bolalari bilan olib boriladigan mashg’ulotlarimizda ularda vatanparvarlik tuyg’ularini shakllantirish maqsadida biz quyidagi mavzular bo’yicha mashg’ulotlar tashkil etishni taklif etamiz.

- Vatan mehri nimadan boshlanadi; (1 soat).
- O’zbekiston-Vatanim manim; (1 soat).

- Sohibqiron Amir Temur davlatchiligi; (1 soat).
- Vatandagi qadimiy obidalar; (1 soat).
- Millatlararo totuvlik; (1 soat) kabi mashg'ulotlar tarbiyalanuvchilarda nafaqat Ona Vatanga nisbatan mehri balki davlat va jamiyatga nisbatan ham munosabati shakllanib boradi.

Maktabgacha va maktab ta'limi tashkiloti tarbiyalanuvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Chora-tadbirlar	Bajarish muddati	Ijro uchun mas'ullar
1.	Yozgi oromgohlar tarbiyalanuvchilari uchun «Men harbiy bo'laman» mashg'ulotlarini tashkil etish.	iyun-avgust	Maktabgacha va maktab ta'limi tizimining (hududiy, tuma-shahar) barcha tashkilotlari rahbar va mutaxassislari.
2.	Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini mard va pahlavon yigit bo'lishga bo'lgan havaslarini oshirishga va ona-yurtga sodiq farzand bo'lish tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan «Jaloliddin bahodirlari nomli sport o'yinlarini tashkil etib borish.	har yili 1 iyun arafasida	Maktabgacha va maktab ta'limi tizimining (hududiy, tuma-shahar) barcha tashkilotlari rahbar va mutaxassislari.
3.	Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini harbiy-texnika vositalari bilan muntazam tanishtirib borish.	Yil davomida	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi metodistlari, Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari metodistlari va tarbiyachilari
4.	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi va Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari tomonidan harbiylar ishtirokida bolajonlar uchun turli tadbirlarni tashkil etish, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishish asosida ularda ona-yurtga muhabbat tuyg'usini shakllantirish lozim.	Yil davomida	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi metodistlari, Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari metodistlari va tarbiyachilari

Maktabgacha va maktab ta'limi tarbiyalanuvchilarini ona vatanga sodiq farzand bo'lib yetishishi uchun Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan quydagi mashg'ulotlarga e'tibor qaratish lozim.

- | | | | |
|----|--|--------------|--|
| 1. | Harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish maqsadida ertak va hikoyalar aytib berish. | Har hafta | Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi metodistlari, Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari metodistlari va tarbiyachilari |
| 2. | Ona-Vatanga muhabbat, Vatan himoyasi muqaddas burch ekani bilan bog'liq mavzulardagi she'r va qo'shiqlarni yod oldirish. | Yil davomida | Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi metodistlari, Maktabgacha va maktab ta'limi |

		tashkilotlari metodistlari va tarbiyachilari
3. Bolalarning tasavvurini kengaytirishga doir rasmlar chizdirish va jismoniy qobiliyatini mustahkamlash uchun turli musobaqa va tanlovlar tashkil etish, shu orqali ularni ma'naviy rag'batlantirish.	Yil davomida	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi metodistlari, Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari metodistlari va tarbiyachilari
4. Harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi multfilmlar namoyish etish va turli o'yinlar o'tkazish.	Yil davomida	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi metodistlari, Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari metodistlari va tarbiyachilari
5. Harbiy muzeylar va harbiy-vatanparvarlik mavzusi bilan bog'liq madaniyat va istirohat bog'lariga ekskursiyalar uyushtirish	Yil davomida	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi metodistlari, Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari metodistlari va tarbiyachilari

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bolalarni harbiy-vatanparvarlikka tayyorlashda nafaqat Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari, balki, ota-ona, mahalla va jamiyat a'zolari ham ma'suldirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018 yil 23 fevral, "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi" 140-sonli Qarori
2. «Ilk Qadam» davlat dasturi. - T., 2018.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat dasturlari. - T., 2018.